

TEXNIK TOPSHIRIQNOMA



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinosari v.b:
B.Bobojonov

«6» oktabr 2025 y.
№ 233

**"Biznesni rivojlantirish banki" ATBda
"Moliyaviy diagnostika qilish va aktivlarni sifatini tahlil qilish "AQR"-
(asset quality review)" bo'yicha
Texnik topshiriqnomasi**

Toshkent 2025

Mundarija

| | |
|---|----|
| 1. Umumiylumotlar va loyiha maqsadlari | 3 |
| 2. Loyihani amalga oshirishning maqsad va vazifalari | 4 |
| 3. Ishlar, xizmatlar tavsifi | 4 |
| 4. Ishtirokchi uchun talablar | 9 |
| 5. AQR- (Asset quality review)- Kredit aktivlarini baholash jarayonlari metodologiyasi. | 10 |
| 6. AQR baholashga cheklovlar | 12 |

1. UMUMIY MA'LUMOT VA LOYIHA MAQSADLARI

1.1 Umumiy ma'lumot

Mazkur loyiha doirasida konsalting kompaniya tomonidan bank faoliyatining 2025-yil 2-chorak yakunlari bo'yicha aktivlar sifati diagnostikasi (keyingi o'rnlarda AQR- Asset quality review) nazarda tutiladi.

1.2 Buyurtmachi:

"Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o'rnlarda – Buyurtmachi/Ob'yekt).

Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi, 18A-uy.

Telefon: +998 78 150-93-39

MFO: 01037

STIR: 206916313

IFUT: 64190

KTUT: 15320710

SWIFT: GJSOUZ22

Bank veb-sayti: <http://www.brbb.uz>

Pochta manzili: headoffice@brbb.uz

1.3 Ijrochi:

Ushbu loyiha bo'yicha ijrochi eng yaxshi takliflarni tanlab olish natijalari asosida aniqlanadi.

1.4 Texnik topshiriqnomalar ishlab chiqish uchun asos:

Aktivlar sifatini diagnostika qilish yuzasidan aksiyador O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 11-sentabrdagi 08/29-3-19873-sonli hati

1.5 Shartnoma imzolash va hisobotni qabul qilish: AQR o'tkazish bilan bog'liq shartnoma uch tomonlama imzolanib, "to'lovchi" sifatida "Biznesni rivojlantirish banki" ATB va "hisobotni qabul qiluvchi" sifatida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank belgilanadi. Hisobot shuningdek, buyurtmachiga ham taqdim etiladi.

1.6 Loyihani amalga oshirishning rejali muddatlari:

Loyihani amalga oshirishning rejalahtirilgan muddati. Loyiha rasman boshlangan kundan boshlab, har bir bosqichni bajarishning tahminiy muddatlari:

| | | |
|-------------------|---|--------------|
| <i>1-bosqich:</i> | Tayyorgarlik va diagnostika boshlanishi | 8-ish kuni; |
| <i>2-bosqich:</i> | Kredit portfeli va balans moddalari | 16-ish kuni; |
| <i>3-bosqich:</i> | Kredit fayllari va hujjatlar tekshiruvi | 16-ish kuni; |

4-bosqich: Garovlarni va jamoaviy zaxiralarni tahlil qilish 16-ish kuni;

5-bosqich: Natijalarni ekstrapolyatsiya qilish va yakuniy baholash 8-ish kuni;

6-bosqich: Yakuniy hisobot va taqdimot 8-ish kuni.

Jami 72 ish kuni.

2. LOYIHANI AMALGA OSHIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

2.1. Maqsad:

Bank aktivlari sifatini mustaqil va xolis baholash, kredit portfeli va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha mavjud xatarlarni aniqlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

2.2 AQR hisobotiga talablar:

- ① kamida Top-60 ta qarzdorlarni tahlil qilish va natijalarni ekstrapolyatsiya qilish orqali MHXS-9 asosida bankning kredit va investitsion porfeli bo'yicha yaratilgan zaxiralar yetarlilagini baholash;
- ② bank kredit portfelidagi konsentratsiya riskini baholash;
- ③ har bir tanlab olingan kredit (qarzdor) bo'yicha uning MHXS-9 asosida klassifikatsiya qilinishiga oid alohida tahliliy ma'lumotnomasi tayyorlash.

3. ISHLAR, XIZMATLAR TAVSIFI

Ijrochi joriy holatni moliyaviy diagnostika qilish va aktivlar sifatini tahlil qilishda quyidagi ishlarni amalga oshirishni ta'minlash majburiyatini oladi:

3.1. Moliyaviy diagnostika

1) Biznes sharhi

- "Obyekt faoliyati va uning tuzilmasining umumiyligi tahlili (yuridik va tashkiliy tuzilma, asosiy operatsiyalar, amaldagi litsenziyalar, xodimlar soni va boshqalar);
- Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar, Obyekt faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, shu jumladan ROE, ROA, kapitalning yetarliligi, foiz marjasи, xarajatlarning daromadlarga nisbati va boshqalarni ko'rib chiqish;

2) Bank qonunchiligi talablariga riosa qilish

- 2022 - 2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (O'zR MB) va boshqa nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijalarini, shuningdek, ko'rsatilgan davr uchun nazorat organlari bilan yozishmalarni tahlil qilish;
- Obyekt tomonidan 2024-yil davomida har chorak yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy prudensial normativlariga riosa etilishini tahlil qilish, ularning bajarilmagan holatlari bo'yicha sharhlar taqdim etish.

3) Obyekt balansining muhim moddalarini batafsil tahlil qilish

Kredit mahsulotlari, korporativ mijozlar: Korporativ mijozlar kredit portfelingining umumiyligi tahlili (qarz oluvchilar, kredit turlari, tarmoqlar, to'lov muddatlari, ta'minot,

foiz stavkalari va boshqa parametrlar bo'yicha konsentratsiya). Kreditlash va zaxiralash bo'yicha ichki nizomlarning qisqacha tavsifi. Korporativ mijozlar kredit portfeli sifatining umumiyligi tahlili (muddati o'tgan, restrukturizatsiya qilingan va joriy kreditlar, muddati o'tgan kreditlar dinamikasi, sifat toifalari bo'yicha tahlil va h.k.). Qarz oluvchilarning bank bilan bog'liq kreditlari tahlili (shu jumladan, kreditlashning asosiy shartlari). Aloqador qarz oluvchilarning 40-60 ta eng yirik guruhlarini batapsil tahlil qilish orqali (kredit hujjatlari va kredit mutaxassislar bilan suhbatlar asosida) qadrsizlanish zaxiralarini baholashning muvofiqligini tahlil qilish. Garovga qo'yilgan mol-mulkni qayta baholash ish hajmiga kiritilmaydi;

Kredit mahsulotlari, chakana mijozlar: chakana portfel uchun BHXS 9 bo'yicha Bank tomonidan qo'llaniladigan zaxiralash metodologiyasini sifatli baholash; Metodologiya va chakana kredit portfeli bo'yicha maqsadli ko'rsatkichni hisoblash asosida zaxiralarning yetarlilagini tahlil qilish. MHXS bo'yicha zaxiralarini hisoblashda Bank tomonidan qilingan asosiy farazlarni tushunish.

Pul mablag'lari va banklararo operatsiyalar: Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari tarkibini tahlil qilish. Obyektning asosiy kontragentlari tahlili. Joylashtirilgan mablag'larning iqtisodiy mohiyati va joylashtirishning asosiy shart-sharoitlari tahlili. Nostro va Loro hisobvaraqlaridagi qoldiqlar sharhi

Investitsiyalar: Obyektning qimmatli qog'ozlar portfeli tuzilmasi va batapsil tahlili. Obyekt rahbariyati bilan ushbu investitsiyalar bo'yicha niyatlarni muhokama qilish. Obyekt investitsiyalarining muddatliligi va asosiy shartlari tahlili. Investitsiyalarning potensial qadrsizlanishi tahlili (shu jumladan, kotirovka qilinmaydigan qimmatli qog'ozlar mavjud bo'lganda ularning haqqoniy qiymatini aniqlash tahlili). Investitsiyalar bozor qiymati bo'yicha baholanmaydi.

Asosiy vositalar: Asosiy vositalar tarkibidagi asosiy obyektlar, shu jumladan qayta baholash va garovga qo'yilgan mol-mulk (5 ta eng yirik obyekt) bo'yicha ma'lumotlar sharhi. Mulkni bozor qiymati bo'yicha baholash amalga oshirilmaydi.

Ijaraga olingan mol-mulk: Ijaraga olingan mol-mulk tarkibi haqida umumiyligi ma'lumot. Ko'chmas mulk obyektlari uchun ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar asosida aks ettirilgan qiymatning yetarlilagini aniqlash maqsadida egalikdagi 5 ta eng yirik obyektni tahlil qilish. Mol-mulk bozor qiymati bo'yicha baholanmaydi.

Boshqa aktivlar va majburiyatlar: Boshqa aktivlar va majburiyatlar tarkibidagi eng muhim moddalarning tuzilishini ko'rib chiqish. Hisobotda aks ettirilmagan ehtimoliy yo'qotishlar nuqtai nazaridan boshqa aktivlarni tahlil qilish.

Mijozlar mablag'lari (talab qilib olinadigan depozitlar va muddatli depozitlar): Konsentratsiya mavzusi bo'yicha mijozlar hisobvaraqlaridagi qoldiqlarni tahlil qilish, ularning tarixiy barqarorligi va yirik mijozlar hamda aloqador tomonlarga bog'liqlik darajasini ko'rib chiqish. Mijozlarning hisobvaraqlarini mijozlarning turlari, muddatli mahsulotlar, foiz stavkalari, valyutalar bo'yicha tahlil qilish. Rahbariyat sharhlari asosida bozorga xos bo'limgan/nostandart sharoitlar tahlili

Balansdan tashqari majburiyatlar tahlili: a) Balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinadigan Obyekt majburiyatlarining tahlili (berilgan kafolat va kafilliklar, akkreditivlar, boshqa shartli majburiyatlar). Berilgan 5 ta eng yirik kafolat va akkreditivlarni batafsil tahlil qilish hamda metodologiya va balansdan tashqari majburiyatlar bo'yicha maqsadli ko'rsatkichni hisoblash asosida zaxiralarning yetarlilagini tahlil qilish; b) Obyekt javobgar sifatida ishtirok etayotgan sud jarayonlarini ko'rib chiqish; v) Obyektning xodimlari va assosiy boshqaruva xodimlari uchun kompensatsiyalar bo'yicha shartli majburiyatlarni tahlil qilish. Potensial majburiyatlar, shu jumladan rahbariyatga kompensatsiyalar va pensiya dasturlari bo'yicha xodimlarni boshqarish siyosatini ko'rib chiqish. Oltin parashyutlar, opsonlar va boshqalar ko'rinishidagi majburiyatlar mavjudligi yuzasidan yuqori rahbariyatning mehnat shartnomalarini ko'rib chiqish.

4) Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot moddalarining tahlili

- Obyektning eng yirik daromad va xarajat moddalarini tahlili;
- Assosiy daromad manbalari va ularning drayverlarini aniqlash bo'yicha tahlil;
- Assosiy daromad va xarajat moddalarini ularning Obyekt faoliyati xususiyatiga muvofiqligini tahlil qilish, shuningdek, daromad va xarajat moddalarining muhim va nostandard elementlarini aniqlash. Xodimlarning assosiy toifalari bo'yicha xodimlar xarajatlarini ko'rib chiqish, jumladan, biznes yo'naliishlari bo'yicha xodimlar sonini tahlil qilish (mavjud ma'lumotlar mavjud bo'lsa), xodimlar xarajatlari tarkibi va o'zgarishlarini tahlil qilish, xodimlarni mukofotlash tizimini tahlil qilish.

5) Bog'liq tomonlar bilan operatsiyalar

- Bozor sharoitlaridan farq qiluvchi shartlarda bog'liq tomonlar bilan operatsiyalarni tahlil qilish.
- Hisob-kitob uchun zarur ma'lumotlar mavjud bo'lsa, Obyektning aloqador tomonlar bilan operatsiyalarga bog'liqligini va bunday operatsiyalarni to'xtatishning moliyaviy holatga ehtimoliy ta'sirini ko'rib chiqish.

6) Obyektning so'nggi mavjud sanadagi sof aktivlariga ehtimoliy tuzatishlarni aniqlash;

3.2. Kredit portfeli sifatining tahlili

1) Uslublar va hisob siyosatlarini tahlil qilish, Bankning ichki siyosatini tahlil qilish. Kredit monitoringi va hisoboti, qarzlarni undirish va tarkibiy o'zgartirish, garovlarni baholash va zaxiralarni hisoblash bo'limlarining ish jarayonlarini ko'rib chiqish;

2) Tanlanmani shakllantirish

- Portfelning assosiy risk-omillarini hisobga olgan holda, MHXSga muvofiq kredit portfeli asosida tanlanmani tayyorlash maqsadida tanlanmani shakllantirish metodologiyasini aniqlash;
- Qarz oluvchilarining umumiy soni va portfel hajmiga nisbatan tanlovnинг yetarlilagini ta'minlash uchun qarz oluvchilar sonini aniqlash;
- Konsentratsiya darajasi - qarz oluvchilarining konsentratsiya darajasini risk-omillar kesimida baholash.

- Segmentlash va tanlab olish MHXSga muvofiq kredit portfeli asosida amalga oshiriladi;
- Tanlanmaga yondashuv va qo'llaniladigan farazlarni hujjatlashtirish.

4) Kredit yig'majildlarini tekshirish

- Tasniflashning to'g'rilagini va zaxiralash darajasini tekshirish maqsadida tanlanmadagi qarz oluvchilar faoliyatini batafsil tahlil qilish, asosiy xatarlarni, AQR metodologiyasiga muvofiq qadrsizlanish omillarining mavjudligini aniqlash. Tahlil Bankning monitoring fayllari, kredit shartnomalari, moliyaviy hisobotlari, ta'minot to'g'risidagi ma'lumotlar, tegishli tavakkalchilik tahlilchilari va bankning mas'ul bo'linmalari bilan suhbatlar asosida amalga oshiriladi.
- restrukturizatsiya qilingan bitimlarni identifikasiya qilish, yirik qarz oluvchilarni tanlab olish bo'yicha restrukturizatsiya jarayonlari doirasida kredit tavakkalchiligini monitoring qilish va boshqarish jarayonini tahlil qilish;
- Rahbariyat ma'lumotlari asosida aloqador tomonlar va aloqador mijozlar bilan joriy va ehtimoliy bitimlarni ko'rib chiqish);
- Tahlil natijalariga ko'ra 3-qadrsizlanish bosqichiga tasniflangan kreditlar bo'yicha ssenariyni (ehtimollikni) aniqlash - keyinchalik zaxirani hisoblash va bankda ushbu ssenariylar mavjud bo'lganda tegishli hisob-kitob tartibini qo'llash maqsadida.
- Zaxiralashning zarur darajasini va uning yetarlilagini baholash;
- Barcha aniqlangan tafovutlar taqdimoti.

5) Garovga qo'yilgan mol-mulk qiymatining tahlili

- garovlarni baholash jarayoni va jarayonni boshqarishning aniqlangan tavakkalchiliklarni qoplash uchun yetarlilagini tahlil qilish, shu jumladan tashqi baholashni sertifikatlashtirish va baholash mezonlariga, baholashning davriyiligiga, baholashni ichki qayta ko'rib chiqish tartibiga, tegishli axborot mavjud bo'lganda keyingi garovlar va garov ta'minotining boshqa mumkin bo'lgan yuklamalariga e'tibor qaratish;

Garov ma'lumotlarini, jumladan, yirik korporativ qarz oluvchilar haqida axborot mavjud bo'lsa, baholash va baholash natijalari haqidagi batafsil ma'lumotlarni olish. 6) Tekshiruv natijalarini ekstrapolyatsiya qilish

- Kredit fayllarini tekshirish natijalarini ekstrapolyatsiya qilish metodologiyasini aniqlash;
- Ilgari aniqlangan har bir tekshiruv segmentini tekshirish natijalarini kreditlar to'plamining bir xilligi baholanadigan kengroq portfelga ekstrapolyatsiya qilish;
- Yondashuv quyidagi qadamlarga asoslanadi:
- Segmentatsiya va bir turdag'i portfellar uchun xavf omillarini aniqlash;
- Har bir segment uchun ekstrapolyatsiya metodologiyasini va kredit xavfining tarkibiy qismlarini (PD, LGD, EAD) aniqlash;
- Ekstrapolyatsiyaga taalluqli barcha farazlarni hujjatlashtirish;

7) jamoaviy zaxiralar tahlili:

Zaxiralashning asosiy modellarining asosiy farazlari, metodologiyalari va konsepsiylarini ko'rib chiqish, ularning eng yaxshi tarmoq amaliyotiga muvofiqligini baholash;

Bank tomonidan qabul qilingan 9-sonli MHXS (IFRS) doirasida model bo'yicha barcha tasdiqllovchi hujjatlar va taxminlarni tahlil qilish;

AQR metodologiyasiga muvofiq parametrlarni hisoblash;

Parametrlarni baholash - PD, LGD, EAD, CCF;

Kredit yig'majildlari tahlili natijalari proyeksiyasi (CFR) - kredit yig'majildlari tahlili natijalari asosida PD/LGD/EAD parametrlariga tuzatishlar kiritishni hisobga olgan holda ECLni qayta hisoblash.

Asosiy farazlar va parametrlarning sezgirligini tahlil qilish - jamoaviy modelning ishonchlilagini ta'minlash uchun.

4. ISHTIROKCHI UCHUN TALABLAR

Tanlovda quyidagi talablarga javob berishi kerak bo'lган ishtirokchilar/maslahatchilar ishtirok etishi mumkin:

1. Holislikni ta'minlash maqsadida ishtirokchi/maslahatchi "Biznesni rivojlantirish banki" ATBni oxirgi 2 yil ichida tashqi auditdan o'tkazmagan bo'lishi, shu jumladan tashqi auditdan o'tkazgan sub'yeqtga aloqador bo'lmasligi lozim.
2. Maslahatchi xizmatlar ko'rsatish uchun amalga oshiriladigan ishlar (xizmatlar) va jalb qilinadigan mutaxassislar ro'yxatini taqdim etishi lozim.
3. O'zbekistondagi davlat ulushiga ega banklarning va/yoki Markaziy Osiyo/MDH/YEOII banklarining aktivlar sifati diagnostikasi (AQR) va/yoki kredit portfelini tahlilini o'tkazish bo'yicha tajribaga ega bo'lган xalqaro kompaniyalar qatoriga kirishi kerak.
4. Maslahatchi jamoasi tarkibida quyidagi mutaxassislar bo'lishi kerak:
 - a. Jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida magistrlik (MS, MF, MBA yoki ularning ekvivalentlari) darajasiga va Chartered Financial Analyst (CFA) xalqaro sertifikatiga ega bo'lган kamida 1 nafar mutaxassis;
 - b. bank sohasida shunga o'xshash loyihalar va/yoki aktivlar sifati diagnostika (AQR) o'tkazish tajribasiga ega hamda Auditorlik xizmatlarini ko'rsatish uchun shtatida ACCA (Association of Chartered Certified Accountants)ning ACCA Member, ACCA Fellow yoki CPA (Certified Public Accountant) sertifikatiga ega bo'lган kamida 2 ta yetakchi ekspert;
 - c. Maslahatchi jamoasi shunga o'xshash loyihalar bo'yicha tajribaga ega bo'lishi kerak (Markaziy Osiyo/MDH/YEOIIda AQR/Loan review bo'yicha kamida 3 ta loyihada ishtirok etgan).
5. Maslahatchi O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan va/yoki vakolatxonaga ega bo'lishi kerak.
6. Aksiyador va investorlarni jalb qilish maqsadida xalqaro obligatsiyalar emissiya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi banklarning moliyaviy

hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tayyorlangan moliyaviy hisoboti yuzasidan komfort xat (comfort letter) tayyorlab bergen bo'lishi;
Asosiy sessiyalarda o'zbek/rus tilli ekspertlarning majburiy ishtiroki.

© Ilova
©

© AQR- (Asset quality review)- Kredit aktivlarini baholash jarayonlari metodologiyasi.



© Umumiy tahlil-

1-Bo'lim:

- © *Buxgalteriya hisobi- jarayonlari, siyosatlari va amaliyotlari sharhi Bank balansidagi aktivlarning balans qiymatiga asosiy ta'sir ko'rsatadigan muhim mavzularning umumiy ko'rinishini.*



© Portfel tahlili-

© 2-Bo'lim:

© *Kreditlar shakli va ma'lumotlar yaxlitligini tekshirish (DIV)*

© Bo'lim vazifalari:

- © • Bank ma'lumotlarini to'plash
- © • Ma'lumotlar yaxlitligini tekshirish (DIV)
- © • DIV asosida ma'lumotlarni tuzatish.

Individual tahlil –

© 3-Bo'lim:

© *Tanlanma:* Eng yirik qarz oluvchilar kreditlar bo'yicha individual kredit hujjatlarini tahlil qilish va ta'minotni baholash uchun tanlanmaga kiritiladi ta'minot hujjatlari va ularni baholash.



© 4-Bo'lim:

Kredit fayllari tahlili (CFR)-Namunadan tanlangan qarz oluvchilar uchun quyidagilar baholanadi:

- Kredit xususiyatidagi talablar hajmi
- Qayta tuzilish
- Qadrsizlanish bosqichlarining triggerlari
- Ssenariylar va hokazo

5-Bo'lim:

Garov mulkini baholash (CVR)- Tanlanma garovlardan 3-bosqichga mansub bo'lganlari uchun.

Kollektiv asosda zaxiralarni tahlil qilish va kredit yig‘majildlarini tahlil qilish natijalarining proyeksiyasi kredit yig‘majildlarini tahlil qilish-

6 va 7- Bo’limlar:

PD, LGD va EAD segmentlangan portfel uchun jamoaviy asosda baholanadi. ECL hisobi amalga oshiriladi. ECL hisoblanadi.

CFR natijalarining PD, LGD va EAD ko‘rsatkichlariga proyeksiyalanishi amalga oshiriladi.

Yakuniy zaxiralar quyidagilar asosida hisoblanadi:

- Zaxiralarni jamoaviy baholash,
- Shaxsiy zaxiralar,
- Garovga qo‘ylgan mulkni baholash,
- CFR natijalarining proyeksiyalari,
- CFR Ssenariylar va boshqalar

Adolatli qiymat bo‘yicha portfel-

8-Bo’lim:

Haqqoniy qiymat bo‘yicha baholanadigan aktivlar tahlili-Bank balansidagi o‘chmas mulkni va boshqa aktivlarni baholashning asosliligini baholash, masalan, boshlang‘ich ma’lumotlari 2-darajada tasniflangan qimmatli qog‘ozlar adolatli qiymat iyerarxiyasi (agar ular muhim bo‘lsa).

Kapitalga yakuniy CET1% ta’siri-

9-Bo’lim:

Barcha OKA tuzatmalari (tahlil natijalari ta’minalash, individual va jamoa zaxiralari, natijalar proyeksiyasi CFR va FV qayta baholash) CET1% da aks ettiriladi.

AQR baholashga cheklovlar

1-Cheklov: Sharh cheklangan bo‘ladi: tekshiruv asosan 9-sonli MHXS bo‘yicha zaxiralarni shakllantirish siyosati va ta’mintoni baholash tamoyillariga taalluqli bo‘ladi

2-Cheklov: Sharh bank tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni (shu jumladan kredit portfelini) bank hisobotlari (MHXS va Markaziy bank uchun) bilan solishtirib tekshirish bilan cheklanadi.

5-Cheklov: Garovlarni mustaqil baholash ish hajmiga kirmaydi, lekin garovlar tahlil qilinadi, "soft" garovlar aniqlanadi va "hard" garovlarga nisbatan qiymatni pasaytirishga tegishli koeffitsiyentlarini qo'llanadi, shuningdek garovlar ma'lumotlar bazasini tanlangan namuna bo'yicha garov shartnomalari bilan solishtiriladi.

8-Cheklov: Bankning asosiy vositalari va musodara qilingan mol-mulkni mustaqil baholash ishlari hajmiga kirmaydi (asosiy vositalar uchun auditorlik tekshiruvidan o'tkazilgan hisobot ma'lumotlari foydalaniladi). Biroq, musodara qilingan mol-mulk uchun qiymatning pasayish koeffitsiyentlarini qo'llaniladi, shuningdek bankdan olib qo'yilgan va uning egaligida bo'lgan aktivlar bo'yicha diskontlashni amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlar ahamiyatiga qarab, ochiq ma'lumotlardan foydalangan holda narxlarning tanlanma tekshiruvlari o'tkaziladi.

kelishuvchilar: D.Khakimov, K.Karimov, R.Takhirova

<https://hujjat.brb.uz/?pin=uP23jU34&id=3655c6f2-1678-49c7-94cc-89b2a044f428>